


O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

60713200 – *Transportda tashishni tashkil etish va boshqarish (avtotransport)*
bakalavriat ta‘lim yo‘nalishining malaka talablari

Toshkent-2023



ISHLAB CHIQLIGAN:

Toshkent davlat transport universiteti.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2023 yil «29»
09 dagi 438 - sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

1.	60713200 – <i>Transportda tashishni tashkil etish va boshqarish (avtotransport)</i> bakalavriat ta’lim yo’nalishining umumiy tavsifi.....	4
1.1.	Qo’llanish sohasi.....	4
1.1.1.	60713200 – <i>Transportda tashishni tashkil etish va boshqarish (avtotransport)</i> ta’lim yo’nalishi malaka talabining qo’llanilishi.....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	60713200 – <i>Transportda tashishni tashkil etish va boshqarish (avtotransport)</i> ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.....	4
1.2.1.	60713200 – <i>Transportda tashishni tashkil etish va boshqarish (avtotransport)</i> ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2.	60713200 – <i>Transportda tashishni tashkil etish va boshqarish (avtotransport)</i> ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining ob’ektlari.....	5
1.2.3.	60713200 – <i>Transportda tashishni tashkil etish va boshqarish (avtotransport)</i> ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4.	60713200 – <i>Transportda tashishni tashkil etish va boshqarish (avtotransport)</i> ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.....	5
2.	60713200 – <i>Transportda tashishni tashkil etish va boshqarish (avtotransport)</i> ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo’yiladigan talablar.....	6
2.1.	Umumiy kompetensiyalar.....	6
2.2.	Kasbiy kompetensiyalar.....	7
2.3.	Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta’minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo’yiladigan talablar.....	7
2.4.	Kvalifikatsiyalar.....	9
	Bibliografik ma’lumotlar.....	10
	Kelishuv varag’i.....	11

1. 60713200 – Transportda tashishni tashkil etish va boshqarish (avtotransport) bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi

60713200 – Transportda tashishni tashkil etish va boshqarish (avtotransport) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi va sirtqi ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta'lim shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 4 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi.

1.1.1. 60713200 – Transportda tashishni tashkil etish va boshqarish (avtotransport) ta'lim yo'nalishi Malaka talabining qo'llanilishi.

Malaka talabi *60713200 – Transportda tashishni tashkil etish va boshqarish (avtotransport)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

- mazkur ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

- ta'lim yo'nalishining o'quv rejasi va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim tashkilotining talabarlari;

- bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

- ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

- oliy ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

- oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

- oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. 60713200 – Transportda tashishni tashkil etish va boshqarish (avtotransport) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1. 60713200 – Transportda tashishni tashkil etish va boshqarish (avtotransport) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari:

60713200 – Transportda tashishni tashkil etish va boshqarish (avtotransport) – “Muhandislik ishi” ta'lim sohasiga oid yo'nalish bo'lib, bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari davlat va nodavlat korxonalar, tashkilotlar, muassasalar, davlat boshqaruv organlarida transportda tashishni tashkil etish va boshqarish bo'yicha kompleks masalalarni yechishni o'z ichiga oladi.

1.2.2. 60713200 – Transportda tashishni tashkil etish va boshqarish (avtotransport) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari:

– davlat va nodavlat tashkilotlari, korxonalar va muassasalar, kompaniyalar (firmalar), ishlab chiqarish birlashmalari va boshqalar;

– transport jarayonlari.

Yo'nalish bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrlarning kasbiy faoliyat obyektlarida qo'shimcha va o'zgarishlar bo'lishi mumkin. Bo'lishi mumkin bo'lgan qo'shimcha va o'zgarishlar muayyan talim yo'nalishining malaka talablari va o'quv rejalarini ishlab chiqishda hisobga olinishi nazarda tutiladi.

60713200 – Transportda tashishni tashkil etish va boshqarish (avtotransport) ta'lim yo'nalishi bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrlarning kasbiy faoliyat obyektlarida

qo‘shimcha va o‘zgarishlar bo‘lishi mumkin. Bo‘lishi mumkin bo‘lgan qo‘shimcha va o‘zgarishlar muayyan talim yo‘nalishining malaka talablari va o‘quv rejalarini ishlab chiqishda hisobga olinishi nazarda tutiladi.

Ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr pedagogik qayta tayyorlashdan o‘tgandan so‘ng o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘lim muassasalarida maxsus fanlarni o‘qitishi mumkin.

1.2.3. 60713200 – Transportda tashishni tashkil etish va boshqarish (avtotransport) ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:

- ilmiy-tadqiqot;
- loyihaviy-texnologik;
- foydalanish va servis xizmati ko‘rsatish;
- ishlab chiqarish-texnologik;
- tashkiliy-boshqaruv.

1.2.4. 60713200 – Transportda tashishni tashkil etish va boshqarish (avtotransport) ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.

60713200 – Transportda tashishni tashkil etish va boshqarish (avtotransport) ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob‘ektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo‘lishi lozim:

Ilmiy tadqiqot faoliyatida:

- ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarda sohaga oid mavzularda ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishda ishtirok etish;
- internet tarmog‘ida eng yangi ilmiy yutuqlar haqidagi ma‘lumotlarni maqsadga yo‘nalgan holda qidirish va topish;
- transportda tashishni tashkil etish va boshqarishga oid ilmiy to‘plamlar, mahalliy va chet el ilmiy-tadqiqot yutuqlarini o‘rganish;
- kasbiy faoliyat ob‘ekti yo‘nalishiga mos yangi ilmiy natijalar, ilmiy adabiyotlar yoki ilmiy-tadqiqot loyihalarini o‘rganish;
- ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarda eksperimental tadqiqotlar o‘tkazish, ularning natijalariga ishlov berish, baholash va boshqa kasbiy faoliyat turlarini bajarish;
- ilmiy-tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, soha adabiyotlari ekspertizasini amalga oshirishda qatnashish;
- tadqiqot natijalari va ishlanmalarini tatbiq etishda qatnashish;
- ma‘lumotlarni jamlash, qayta tayyorlash, mavzu bo‘yicha ilmiy ma‘lumotlarni tizimli tahlil qilish **qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak.**

Loyihaviy-texnologik faoliyatda:

- ishlab chiqarish-texnologik faoliyatini tashkil etish va boshqarish;
- ishlab chiqarish faoliyati natijalari bo‘yicha ma‘lumotlarni qayta ishlash usullaridan foydalanish va monitoringini olib borish;
- fan va texnika yutuqlarini ishlab chiqarish-tashish jarayonlariga tatbiq etish;
- tashish, ortish-tushirishlarni iqtisodiy va ijtimoiy samaradorlikni baholash;
- amaliy faoliyatda transport vositalarni va ishlab chiqarish muhitini takomillashtirish **qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak.**

Foydalanish va servis xizmati ko‘rsatish faoliyatida:

- ishlab chiqarish-texnologik faoliyatini tashkil etish va boshqarish;
- ishlab chiqarish faoliyati natijalari bo‘yicha ma‘lumotlarni qayta ishlash usullaridan foydalanish va monitoringini olib borish;
- fan va texnika yutuqlarini ishlab chiqarish-tashish jarayonlariga tatbiq etish;
- tashish, ortish-tushirishlarni iqtisodiy va ijtimoiy samaradorlikni baholash;
- amaliy faoliyatda transport vositalarni va ishlab chiqarish muhitini takomillashtirish **qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak.**

Ishlab chiqarish-texnologik faoliyatida:

- yuk va yo'lovchilarni tashish jarayonlarini tashkil etish va boshqarish;
- transport tizimlarini boshqarishning xususiyatlari, ularning turlari va asosiy tavsiflari; transport tizimlarini boshqarish funksiyalari va usullari, transport tizimlarini boshqarishni davlat tomonidan muvofiqlashtirish usullari va vositalarini o'rganish;
- tashish elementlari va uning transport ta'minoti, transport xizmatlarini ko'rsatish, yuklarni konteynerlashtirish va omborlashtirish, yuklarni yetkazib berish tizimlari, terminallar va omborlarda qayta ishlov berish moddiy oqimlar, korxonalarda transport logistika tizimini tashkil etish;
- yuklarni yetkazib berish tizimini loyihalash va huquqiy ta'minoti, tara, upakovka va yuklarni markirovkalash, transportda servis xizmatlari, infratuzilma va mezonlari, optimal tashishni tashkil etishni bilish;
- tashishlarni tashkil etish va boshqarish sohasida turli xil transportlar xizmatidan foydalanishda intellektual boshqaruv tizimini, GPS va GLONASS tizimlari to'g'risida amaliy bilimlar berish;
- transportda tashish bo'yicha hujjatlarni ishlab chiqishni ta'minlash, tashish jarayonida bajarilayotgan nazariy va amaliy ishlar mavzusi bo'yicha matematik, informatsion va imitatsion modellarni ishlab chiqish va tatbiq etish.
- transportda tashish, ortish-tushirish, saqlash va jo'natish tashkiliy tuzilmalarini optimallashtirish, xodimlarning professional tayyorgarlik darajasini oshirib borishni tashkil qilish va boshqarish, mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish, mehnatni rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish;
- zamonaviy axborot texnologiyalar tizimidan foydalanib tashish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari hamda mexanizmlarini ishlab chiqish **qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.**

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatda:

- transport faoliyati sifatini boshqarish jarayonlarini ishlab chiqish va tatbiq qilish;
- transportda tashish ishlari jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan chora tadbirlarni va resurslarini rejalashtirish;
- ishlab chiqarish jarayonlarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqish va monitoringini olib borish;
- atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida tashish jarayonlarini nazorat qilish;
- transportda tashish jarayonini xavfsiz va sifatli boshqarish;
- tashishlarni boshqarish jamoasi ishini tashkil qilish;
- bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirgan ishining natijalarini baholash;
- harakat tarkiblari ishini tashkil etishda atrof-muhit muhofazasi, yong'in, texnika va mehnat xavfsizligi talablariga mosligini monitoring qilish **qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.**

2. 60713200 – Transportda tashishni tashkil etish va boshqarish (avtotransport) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

2.1. Umumiy kompetensiyalar:

- davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;

- axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo‘llay bilishi, axborotlarni yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo‘lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o‘z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;
- sog‘lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to‘g‘risida tassavvurga ega bo‘lish.

2.2. Kasbiy kompetensiyalar:

- yuk va yo‘lovchilarni jarayonlari bo‘yicha ilmiy, amaliy tadqiqotlar olib borish, tajriba natijalarini qayta ishlash va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy maqolalar tayyorlash va tahrir qilish, ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o‘tkazish, ilmiy loyihalarni ishlab chiqish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
- axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanishni bilish;
- ta‘lim sifati va samaradorligini oshirishga innovatsion yondashishni bilish;
- ilmiy faoliyati natijalari bo‘yicha davlat va xorijda e‘lon qilingan transportda tashish bo‘yicha loyihalarda ishtirok etish uchun kerakli ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;
- tashish jarayonlarini tashkil etish va boshqarish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;
- transport korxonalarini tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish, xodimlarning professional tayyorgarlik darajasini oshirib borishni tashkil qilish va boshqarish, mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish, mehnatni rag‘batlantirish tizimini yo‘lga qo‘yish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;
- transport korxonalarida tashish jarayonlarini va mehnat resurslaridan samarali foydalanishni amaliyotda qo‘llay bilishi;
- transportda tashishlarda bajarilayotgan nazariy va amaliy ishlar mavzusi bo‘yicha matematik, informatsion va imitatsion modellarni ishlab chiqish va tatbiq etish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;
- transportda tashish loyihalarining iqtisodiy samaradorligini baholash, statistik hisobotlarni tuzish hamda ularni sharhlash ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
- transport korxonalarida tashish jarayonlarini ta‘minlash, ularga ta‘sir etuvchi omillarni aniqlash bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazishni va tahliliy ishlarni bajarishni bilishi;
- transport korxonalarida strategik tashish rejalarni ishlab chiqish, tashish sohasida yechilayotgan ilmiy muammolarning konseptual hamda nazariy modellarini ishlab chiqish va ilmiy-tadqiqot natijalari bo‘yicha tavsiyalar va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishni bilish;
- transportda tashish loyihalarining iqtisodiy samaradorligini baholash ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
- tashish jarayonlariga tahdid soluvchi omillarni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish malakasiga ega bo‘lish;
- tashishning meyoriy-huquqiy hujjatlarni ekspertizadan o‘tqazishni bilish.

2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta‘minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.

Talabalar umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko‘nikmalarni egallashi o‘quv rejasiga mantiqiy ketmaketligda kiritiladigan **majburiy va tanlov** fanlarni o‘zlashtirish, amaliyotlarni o‘tish hamda boshqa o‘quv mashg‘ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar – bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko‘nikmalarni ta‘minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlari – ta‘lim yo‘nalishi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo‘shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, talabaning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha quyidagi amaliyotlar o‘tkaziladi:

o'quv (tanishuv) amaliyoti — iqtisodiyot tarmoqlari, tegishli tashkilot, muassasa va korxonalar bilan tanishtirish, tabiiy-ilmiy va umumkasbiy fanlar bo'yicha nazariy bilimlarini mustahkamlashga qaratiladi;

malakaviy (ishlab chiqarish) amaliyoti — umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi;

bitiruv oldi amaliyoti — ishlab chiqarishda (tegishli soha korxonasi, tashkilot va muassasalarida) kasbiy ko'nikmalarni yanada mustahkamlash, kasbiy faoliyatga moslashish, bitiruv malakaviy ishni tayyorlash uchun ma'lumot to'plash va tizimlashtirishga qaratiladi;

Ta'lim yo'nalishlarining o'ziga xos xususiyatlariga muvofiq malaka amaliyotlarining boshqa turlari ham qo'llanilishi mumkin.

Har bir amaliyot turi o'quv reja va o'quv dasturiga muvofiq iqtisodiyot tarmoqlari va real sektorning tegishli ilg'or korxonasi, tashkilot va muassasalari, xorijiy va qo'shma korxonalar, ilmiy tashkilotlar, ta'lim va boshqa muassasalarida, dala sharoitlarida, maxsus tajriba (poligon) ob'ektlarida va boshqalarda o'tkaziladi.

Amaliyotlarni tashkil qilish, o'tkazish va talabalarni baholash mezonlarini belgilash oliy ta'lim muassasalari tomonidan amalga oshiriladi.

ta'lim muassasalari tomonidan amalga oshiriladi.

2.3.1. 60713200 – Transportda tashishni tashkil etish va boshqarish (avtotransport) ta'lim yo'nalishi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar:

O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta'lim shakli uchun fanlarga ajratilgan soat	Ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	5520	184
Tanlov fanlar	960	32
Malakaviy amaliyot	540	18
Yakuniy davlat attestatsiyasi	180	6

2.3.2. 60713200 – Transportda tashishni tashkil etish va boshqarish (avtotransport) bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi:

T.R	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, Bloklari va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Fan o'tiladigan semestrlar
1.00		Majburiy fanlar	5520	184	
1.01	DIN1104	Dinshunoslik	120	4	1
1.02	MK1104	Mutaxassislikka kirish	120	4	1
1.03	XT1109	Xorijiy til	270	9	1,2
1.04	FIZ1110	Fizika	300	10	1,2
1.05	OM1115	Oliy matematika	450	15	1,2,3
1.06	TTAT1106	Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari	180	6	1
1.07	O'RT1204	O'zbek (rus) tili	120	4	2
1.08	O'EYT1204	O'zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	2
1.09	MKG1206	Muhandislik va komputer grafikasi	180	6	2
1.10	FAL1304	Falsafa	120	4	3

1.11	TVTTE1212	Transport vositalari tuzilishi va texnik ekspluatatsiyasi I	360	12	3,4
1.12	TUK1306	Transport umumiy kursi	180	6	3
1.13	HKR1606	Harakatni kompleks rejalashtirish	180	6	6
1.14	Log1410	Logistika	300	10	4,5
1.15	ATYT1410	Avtomobil transportida yuklarni tashish	300	10	4,5
1.16	MTTN1506	Murakkab transport tizimi nazariyasi	180	6	5
1.17	JTTTEB1608	Jamoat transportida tashishni tashkil etish va boshqarish	240	8	6,7
1.18	HTA1506	Halqaro logistika	180	6	5
1.19	TTJM1508	Transportda tashish jarayonlarini modellashtirish	240	8	5,6
1.20	TEK1604	Transport ekologiyasi	120	4	6
1.21	SohI 1706	Soha iqtisodiyoti	180	6	7
1.22	TL1708	Transport logistikasi	240	8	7,8
1.23	TJBIT1708	Tashish jarayonlarini boshqarishning intellektual tizimlari	240	8	7,8
1.24	TTT1706	Trafik telematik tarmoqlari	180	6	7
1.25	HFX1804	Hayot faoliyati xavfsizligi	120	4	8
1.26	TOP1804	Terminal operatsiyalari	120	4	8
1.27	ShTTR1806	Shahar transport tizimini rejalashtirish	180	6	8
2.00		Tanlov fanlari	960	32	
		Tanlov fanlar (6 ta fan)	960	32	3,4,5,6,7
		Malaka amaliyotlari	540	18	2,4,6,8
		Davlat attestatsiyasi	180	6	8
		Jami	720	24	
		HAMMASI	7200	240	

2.4. Kvalifikatsiya. Transportda tashishni tashkil etish muhandisi.

Bibliografik ma'lumotlar

UDK 002: 656. 1/7

Guruh T 55

OXS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat ob'ekti, kasbiy faoliyat sohasi, bakalavriatning asosiy o'quv reja va fan dasturlari, profil, o'qib-o'rganish natijalari, o'quv sikli, ilmiy-tadqiqot, axborot-kommunikatsion texnologiyalar, yo'l harakatini modellashtirish, Transportda tashishni tashkil etish va boshqarish (transport turlari bo'yicha), harakat xavfsizligini tashkil etish, statistik ma'lumotlar, transport va piyodalar oqimlarini boshqarish, yo'l harakatini boshqarishning texnik vositalari va avtomatlashtirilgan tizimlari, haydovchilarni tayyorlash, qayta tayyorlash, stajirovkasini va malaka oshirishini tashkil etish, yo'l harakatini kompleks rejalashtirish, yo'l harakatida so'g'rita ishi, yo'l haraktaini tashkil etish tadbirlarini iqtisodiy asoslash.

KELISHUV VARAG'I

ISHLAB CHIQLDI:

Toshkent davlat transport universiteti

Rektor  O. Abduraxmanov

202_ yil « _____ »
M.O'.



KELISHILDI:

O'zbekiston Respublikasi
Transport vazirligi

Vazir o'rinbosari  I. Abdugafarov

202_ yil « _____ »
M.O'.



O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish
tadqiqotlari markazi

Direktor  Sh. Yakubov

202_ yil « _____ »
M.O'.



"Toshshahartransxizmat" AJ

Boshqaruv raisi  A. Djurayev

M.O'.



I. Karimov nomidagi
Toshkent davlat texnika universiteti

Rektor  S. Turabdjano

202_ yil « _____ »



Toshkent davlat transport universiteti tomonidan
60713200 – Transportda tashishni tashkil etish va boshqarish (avtotransport) ta’lim
yo’nalishi bo’yicha malaka talablari va o’quv rejasining ishlab chiquvchilar,
turdosh oliy ta’lim muassasalari va asosiy kadrlar iste’molchilari o’rtasida

KELISHUV DALOLATNOMASI

Toshkent sh.

“ ” _____ 2023-yil

Biz quyida imzo chekuvchilar – “Toshshahartransxizmat” AJ boshqaruv raisi A.Z.Djurayev, Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti rektori S.M.Turabdjano, Toshkent davlat transport universiteti rektori O.K.Abduraxmanov birgalikda Toshkent davlat transport universitetida ishlab chiqilgan 60713200 – Transportda tashishni tashkil etish va boshqarish (avtotransport) bakalavriat ta’lim yo’nalishining malaka talablari va o’quv rejasini mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

60713200 – Transportda tashishni tashkil etish va boshqarish (avtotransport) bakalavriat ta’lim yo’nalishi malaka talablari hamda o’quv rejasini ishlab chiqilishida O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida” PQ-2909-son, 2017-yil 27-iyuldagi “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-3151-son, 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi PQ-3775-son qarorlari, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi “O’zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi PF-5847-son Farmoni, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etish bilan bog’liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi 824-son qaroriga hamda oliy ta’lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o’quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste’molchilari tomonidan qo’yilgan talablar ham inobatga olingan.

Ta’lim yo’nalishi bo’yicha malaka talablari o’quv reja va fan dasturlari hamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo’lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o’quv rejani o’rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

“Toshshahartransxizmat” AJ
Boshqaruvi raisi

A.Z. Djurayev

Islom Karimov nomidagi
Toshkent davlat texnika
universiteti rektori

S.M.Turabdjano

Toshkent davlat transport
universiteti rektori

O.K.Abduraxmanov